

MAJBURIY JAMOAT ISHLARI BILAN BOG'LIQ JAZOGA HUKM QILINGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASHDA IIO PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING ASOSIY VAZIFALARI

Tashtemirov Anvar Aliqulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Ma'muriy huquq kafedrasida dotsenti. E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.

Mahmudov Asilbek Axmat o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 318 guruh kursanti.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada majburiy jamoat ishlari jazosining tushunchasi va xususiyatlari, shuningdek ushbu turdagi jazoga hukm qilingan shaxslar bilan ishlashda IIOlari profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari va ushbu vazifalar ijrosini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy-amaliy tahlil asosidagi ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *jazo tizimi, huquqbuzarlik, majburiy jamoat ishlari, jazoga hukm qilingan shaxslar, voyaga yetmagan shaxs, qonunchilik normasi.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы понятие вымогательства, совершаемого с использованием цифровых технологий, его современные формы и негативное влияние на общественную жизнь. Рассмотрено, как существующие пробелы в законодательстве отрицательно сказываются на эффективности борьбы с этим видом преступлений, а также подчеркнута важность эффективного использования правил кибербезопасности в цифровых технологиях. В статье предложены инновационные подходы, рекомендации и предложения по данному вопросу.*

Ключевые слова: *вымогательство, цифровые технологии, информационная безопасность, киберпреступность, персональные данные, кибербезопасность, правовая база, профилактические меры, инновационное цифровое вымогательство.*

Annotation: *This article analyzes the concept of extortion committed using digital technologies, its modern forms, and its negative impact on social life. It examines how existing gaps in legislation adversely affect the effectiveness of combating this type of crime, and highlights the importance of effective use of cybersecurity regulations in digital technologies. The article also proposes innovative approaches, recommendations, and suggestions on this issue.*

Keywords: *extortion, digital technologies, information security, cybercrime, personal data, cybersecurity, legal framework, preventive measures, innovative digital extortion.*

O'zbekiston Respublikasida jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq

tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish kabi asosiy jazolar, shuningdek, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qo'shimcha jazo asosiy qo'llanilishi mumkin. Mazkur jinoiy jazo turlaridan majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlarini majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq jazolar ro'yxatiga kiritish mumkin. Chunki, mazkur ikkala jazoning shakli ham jinoyat sodir etgan shaxsni majburiy mehnatga jalb etish orqali ijro etiladi.

Majburiy jamoat ishlari - jinoyat sodir etgan yoki ma'muriy huquqbuzarlikka yo'l qo'ygan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadigan jazo turi bo'lib, u shaxsning muayyan muddat davomida jamoat foydasiga bepul ishlashiga asoslangan. Bu jazo turi insonning erkinligini cheklamaydi, lekin uning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktika chorasidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 451-moddasiga ko'ra, majburiy jamoat ishlari mahkumni haq to'lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilishdan iboratdir. Mahkum ishlayotgan yoki o'qiyotgan bo'lsa, majburiy jamoat ishlari ishdan yoki o'qishdan bo'sh vaqtda o'taladi.

Mahkumlar majburiy jamoat ishlarini o'tashi mumkin bo'lgan joylar (ob'ektlar) va majburiy jamoat ishlarining turi mazkur jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilanadi.

Majburiy jamoat ishlari bir yuz yigirma soatdan to'rt yuz sakson soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi va olti oy davomida kuniga to'rt soatdan ko'p bo'lmagan vaqtda, mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo'lgan muhlatda kuniga to'rt soatdan ko'p bo'lmagan vaqtda o'taladi.

Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan shaxslarga, o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga, harbiy xizmatchilarga, chet el fuqarolariga va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarga nisbatan qo'llanilmasligi va mahkum jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud majburiy jamoat ishlarining o'talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining to'rt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlanilgan vaqt jazoning o'talgan muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

Majburiy jamoat ishlari bilan bog'liq jazoga hukm qilingan shaxslar:

- jinoyat qonunchiligida belgilangan shartlarga muvofiq, mayda jinoyatlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklar uchun majburiy jamoat ishlari jazosi belgilanishi mumkin.

- bunday jazoga hukm qilingan shaxslar, odatda, birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan yoki jinoyatning og'irlik darajasi past bo'lgan holatlarda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ular muayyan muddat mobaynida (masalan, 100 soatdan 300 soatgacha) jamoat foydasiga mehnat qilishga majbur qilinadilar.

Majburiy jamoat ishlari jazosi jamoatchilikka foydali mehnat orqali jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy faolligini oshirish, jazoga hukm qilingan shaxslarni tarbiyalash va jamoat normalariga rioya qilishni o'rgatish, qayta jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Majburiy jamoat ishlari jazosi belgilangan muddat davomida shaxs belgilangan muassasalarda yoki jamoat joylarida (mehnatga muhtojlar uchun yordam ko'rsatish, ko'chalarni tozalash, yoshlar bilan targ'ibot ishlarini olib borish kabi) bepul mehnat qiladi.

Shuningdek, jamoatchilik uchun foydali bo'lgan xizmatlarni amalga oshirish orqali ijtimoiy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Majburiy jamoat ishlari mahkumni haq to'lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilishdan iboratdir. Agar mahkum doimiy ish yoki o'qish joyiga ega bo'lgan bo'lsa majburiy jamoat ishlari ishdan yoki o'qishdan bo'sh vaqtda o'taladi.

Voyaga yetmagan mahkum majburiy jamoat ishlariga jalb qilinganda ishlarning turlari va mazmuni quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ish voyaga yetmaganlarning qo'lidan keladigan (kuchi yetadigan) bo'lishi shart;
- ish maqbul ishchanlik qobiliyatini, foydali hayotiy ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga imkon yaratishi lozim.

Mahkumning majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoni o'tashi mumkin bo'lgan joylar (ob'ektlar) va majburiy jamoat ishlarining aniq turlari mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining taklifiga ko'ra ichki ishlar organi tomonidan mahkum yashaydigan hududda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 maydagi «Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqidagi nizomni hamda majburiy jamoat ishlari turlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi 346-sonli qarorining 2-ilovasida majburiy jamoat ishlari turlarining ro'yxati ko'rsatilgan. Unga muofik majburiy jamoat ishlariga xukum qilingan voyaga yetmagan shaxslar quyidagi ishlarga jalb qilinishi mumkin: shaharlar, tumanlar, posyolkalar, dam olish zonalari, sport va bolalar maydonchalari, tarixiy-arxitektura yodgorliklari, qabristonlarni obodonlashtirish, qurilish-montaj ishlari, yuk ortish-tushirish ishlari, sog'liqni saqlash tizimidagi ishlar, xalq ta'limi tizimidagi ishlar, meva-sabzavot bazalaridagi ishlar, ikkilamchi xomashyolarni tayyorlash va topshirish bo'yicha ishlar.

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan majburiy jamoat ishlarini bajarish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi, mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo'lgan muhlatda kuniga ikki soatdan oshmasligi kerak.

Agar voyaga yetmagan mahkum tomonidan o'taladigan majburiy jamoat ishlari vaqti dam olish kunlari va mahkum o'qishda yoxud asosiy ishda band bo'lmagan kunlari uch soatdan, ish kunlari, o'quv darslari (mashg'ulotlar) o'tkaziladigan kunlari esa, ikki soatdan, biroq haftasiga uch kundan oshmasligi lozim.

Majburiy jamoat ishlariga xukum qilingan voyaga yetmagan shaxs o'n kun ichida o'z yashash joyidagi jazolarni ijro etish inspeksiyasida hisobga turmagan, shuningdek jazoni o'tashdan bo'yin tovlash maqsadida yashiringan mahkum; yozma ogohlantirish olganidan so'ng, o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar mavjud bo'lmasa-da, majburiy jamoat ishlarida bir oy davomida ikki martadan ko'p ishtirok etmagan mahkum; yozma ogohlantirish olganidan so'ng majburiy jamoat ishlarini o'tash joyidagi (ob'ektidagi) tashkilotning ichki mehnat tartibi qoidalarini bir oy davomida uch martadan ko'p buzgan balsa majburiy jamoat ishlarini o'tashdan bo'yin tovlovchilar deb e'tirof etiladi. Hamda Jinoyat kodeksi 821 -moddasi uchunshi qismiga muvofiq sud majburiy jamoat ishlarining o'talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining to'rt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, voyaga yetmaganlarga nisbatan majburiy jamoat ishlari tarizidagi jazoning tayinlanishi voyaga yetmagan shaxslarni o'z oilasi va jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalash, o'z xatti-harakatlarining mohiyatini anglashlari va kelajakda yangi jinoyat sodir yetishining oldini olish maksadiga erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.

6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.
7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.
8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.
9. Tashtemirov A., Po‘latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.
10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.